

## INGLIZ TILI FANINI O'QITISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.

***Muratova Pardaxol Xayitovna***

*Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on tumani*

*50 -məktəb ingliz tili fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'quvchilarni ingliz tiliga o'rgatishning yo'llari haqida fikr yuritilgan. Asosiy e'tibor tinglab tushunish, uyda mutolaa qilish kabi aspektlarga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** aspekt, fantaziya, interaktiv, lingvistik qism, psixologik qism, metodik qism.

Bugungi ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini qo'llab, chet tillariga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarini tayyorlash uchun keng imkoniyatlar yaratilgan.Odatda, o'qituvchi xorijiy tilni o'rgatish, o'qitish usulini o'zi tanlaydi. O'qitishning mazmuni deyarli o'zgarmaydi, ammo uni o'quvchilarga yetkazish usuli o'zgarishi mumkin.O'qitishning bir qancha usullari mavjud. Dars jarayonida quyidagi o'qitish usullaridan foydalanish mumkin. Masalan: Ma'ruza, Misol keltirish, Namoyish qilish, Bahs-munozara, Savol-javoblar, Aqliy hujum,

Bu usullar o'quvchilar bilan muloqot qilish, shuningdek, qo'yilgan maqsadga yo'naltirilgan fikrlarni yoritish usuli yoki shaklidir. O'qituvchi muayyan vaziyat yoki dars uchun mos usulni tanlay bilishi kerak. O'qitishning mos va samarali usulini tanlash uchun bir qancha omillarni hisobga olish zarur.

O'quvchilarning soni.

Muayyan vaziyat.

Usulning qo'yilgan maqsadga mos kelishi.Agar biror matn muhokama qilinsa, o'quvchilarni kichik guruhlarga bo'lib, jamoa yo'li bilan bahs-munozara o'tkazish

maqsadga muvofiqdir. Bu usulda texnik vosita - audio-yozuvlardan foydalanish mumkin. Usullarni qo'llaganda vaqtini doimo hisobga olish zarur. Aqlliy hujum (Brain storming) usuli. Ushbu usul o'quvchilarning faol ishtiroki hamda ularning bilim saviyalari darajasini namoyon qiladi. Bu o'quvchilarni g'oyalalar o'ylab topishga undaydi, erkin muloqotda bo'lish imkonini beradi va natijada ancha fikrlar to'planadi. O'qituvchi esa jarayon mobaynida nazoratchi hisoblanadi. O'quvchilarning g'oyalari unchalik muvaffaqiyatli bo'lmasa-da, o'qituvchi ularni tanqid qilishi mumkin emas. Aksincha, o'quvchilarning ijodiy tafakkuri rag'batlantirib borilishi zarur. Darsda tez berilgan javoblarni rag'batlantirish, ularni to'ldirish, o'quvchilarni baholash bilan yakunlanadi. Savol-javoblar va rasmi o'yinlar (Discussion) usuli darslarni yanada mazmunli va qiziqarli o'tishga imkon beradi. O'quvchi xato qilishdan qo'rqlay, erkin o'z fikrini ayta olishi kerak. Bunday muhit darsda hosil qilinishi lozim. O'yin orqali o'qitishning texnologiyasida o'quvchining vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Kutiladigan javoblar va e'tirozlarni o'ylash.
2. O'z bilimiga ishonish.

O'yinning ahamiyati shundaki, o'qituvchida o'quvchilarni ular erkin holda faoliyat ko'rsatayotgan paytda kuzatish imkoniyati bo'ladi. Natijada o'quvchilarning faolligi, fantaziyalari, ijodiy qobiliyatları, ishchanliklari, jamoada o'zini tutishlari haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lish mumkin. O'quvchilar bir nechta guruhlarga bo'linadilar. Guruhlarning har bir a'zosi o'z vazifalarini aniq bilishlari kerak. O'yinning vaqtini cheklangan bo'lishi, u yakunlangach esa o'yin natijalari tahlil qilinishi lozim. O'yin orqali o'qitish texnologiyalari ham o'quv-tarbiyaviy jarayonda o'quvchilarning chuqur bilim olishiga keng imkoniyatlar yaratib beradi. Ingliz tilini o'rgatishda o'quvchilarni qiziqtirib o'qitish va bilimlarni to'liq o'zlashtirishlariga erishish zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Ingliz tilini o'qitish usullaridan yana biri - zamonaviy interaktiv usulidir. Usul mazmuniga ko'ra, darsda yangi grammatik mavzu e'lon qilinib, o'qituvchi uni turli yo'llar, ya'ni doskaga har xil chizmalar chizish, harakatlar bilan

ko'rsatish, avvalgi o'tilgan mavzu bilan taqqoslash bilan tushuntirishi, mustahkamlovchi savollar bilan o'quvchilarni fikrlashga jalb etishi lozim. Fonetik mashg'ulotlarda esa, asosan, audiomatndagi qisqa suhabatlar tinglanib, ushbu audiomatndagi suhabatga aynan mos bo'lgan, so'zlari tushirib qoldirilgan so'zdagi matn to'ldiriladi. O'quvchiga berilgan matn bilan audiomatndagi suhabat bir xil bo'ladi. Matn o'ta ziyraklik bilan tinglanib, yangi iboralarni yodda saqlab qolgandagina, o'quvchi shartni muvaffaqiyatli bajarishi mumkin. Bunda tinglab tushunish orqali og'zaki nutq, ko'nikma va malakalar shakllanib boradi. Tinglab tushunish o'qish jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir. Tinglovchi o'qigan so'zlarini yaxshi eslab qoladi va tinglaganida yaxshi tushunadi. Tinglab tushunishni o'rgatishning mazmunini G.V.Rogova uch qismga bo'ladi:

1. Lingistik qism. Bunga til va nutkq materiali kiradi.
2. Psixologik qism. Bu ovozli nutqni tinglash, tushunish malaka va ko'nikmasini hosil qilishdir.
3. Metodik qism. Tinglovchilarga tinglash usullarini o'rgatish hamda tinglab tushunish texnologiyasi orqali qonun-qoida,tamoyillar, metodlar, vositalar orqali o'rgatish amalga oshiriladi.

O'qitish jarayonida tinglab tushunish ustida ishlaganda, kundalik yangiliklar, tili o'rganilayotgan mamlakat xalqlari hayoti, madaniyati, tarixi haqida matnlarning bo'lishi tinglovchilarning qiziqishlarini yanada orttiradi.O'qituvchi tinglab tushunishni o'rgatayotganida, ya'ni tinglovchi notanish mazmundagi nutqi tinglaganida quyidagilarga e'tibor berishi zarur:

1. Ayrim so'zlarni, gaplarni, jumlalarni tushunish (fragmenting comprehension).
2. Xamma dalil-fikrlarni to'liq tushunish (comprehension in details).
3. Asosiy dalil-fikrlarni yuzaki tushunish (overall comprehension).
4. Tanqidiy tushunish (critical comprehension).

O'qituvchi eshittirish uchun matn tanlaganida,tinglovchilarning yoshi, bilim darajasi, o'zlashtirishlarini hisobga olishi zarur. Misol uchun, biror notanish matn

tanlanadi. Matndagi notanish so'zlar, iboralar matn sarlavhasi doskaga yoziladi. Matn yuzasidan savol-javoblar ham o'tkazilishi mumkin.

Tinglab tushunishga o'rgatish jarayoni quyidagi bosqichlar orqali amalga oshiriladi:

Activity:

1. Before listening.

Matn sarlavhasi va savollar doskaga yoziladi.

At the party:

(Amy Smith and Mike Thompson)

1. Where did Mike meet Amy?
2. When was last time they met?
3. What was his job then?
4. What does he do?
5. What is he studying at the moment?

2. While listening.

Suhbat(dialog) eshittiriladi. Tinglovchilar doskaga yozilgan savollarga matndan javob topadilar. Agar zaruriyat bo'lsa, matn yana 1-2 marta qayta eshittirilishi mumkin.

Answers:

1. They met at the party.
2. It was two years ago.
3. He was a pizza delivery man then.
4. He is a steward.
5. He is studying to be a pilot.

After listening.

Tinglovchilar savollarga javob beradilar. Ular tushunmagan so'z va iboralar doskaga yoziladi va tarjimasi tushuntiriladi. Tinglovchilarning javoblari birlariniki bilan taqqoslanadi. To'g'ri javoblar doskaga yozilishi mumkin.

Yana shuni xam aytish joizki, ingliz tilini o'qitish davomida uyda o'qish (home reading) mashg'uloti xam olib boriladi. Uyda o'qish talabalarini turli xil mavzularda chet tilida so'zlashish jarayoniga beixtiyor jalb qilish uchun qulay va boy manba hisoblanadi. Ta'lif oluvchilarning so'z boyligi va fikrlash qobiliyatlari kengayadi. Original adabiyotni o'qish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Masalan: "Jane Eyre" asari misolida quyidagi mashqlar bajarilishi mumkin:

I. Notanish so'zlar ustida ishslash.

Tinglovchilar uchun notanish bo'lgan quyidagi so'zlar va iboralar doskaga yoziladi hamda ularning talaffuz qilinishi tinglovchilarga tushuntiriladi:

Lovable - yoqimtoy.

An orphan - yetim.

To shake with fear (shook, shaken) - qo'rquv bilan qimirlatish.

Without doubt - ikkilanishsiz.

To earn one's living - yashash uchun pul topmoq.

II. Mavzu yuzasidan savol-javoblar:

1. Why was Jane living with the Reed family?

2. Where did Jane go?

3. How did Jane live in Lowood?

4. Whom did she meet there?

5. Why do you think Jane didn't wish to be noticed by Mr. Rochester's guest?

III. Predlog qo'yish mashqlari:

1. There I found a book ... pictures.

2. The two girls never played ... me.

3. Then one day I looked . . my window.

4. One dark night a week latter, I arrived ... Lowood.

IV. So'zlarni joy-joyiga qo'yib gaplar tuzish:

1. Explain, someday, I, shall, you, to.

2. Two, at, young, around, women, sat, table.

3. He, ask, did, to, marry, him, you.

4. Where, the, fire, Mr. Rochester, after, go, did.

Bundan tashqari, tinglovchilarni uy o'qishi jarayonida insho yozishga ham o'rgatish mumkin. Ular insho mavzulari bilan tanishgach, hoxlagan mavzuni tanlab uyda insho yozishlari mumkin.

Masalan:

1. Siz yoqtirgan asar qahramoni.
2. Asardagi salbiy va ijobiy obrazlarga xarakteristika bering.
3. Jeyn Eyrning bolalik davri.
4. Asarning asosiy qahramoni xaqida fikr-mulohazalaringiz va hokazo.

Bunda leksik-grammatik qiyinchiliklar vujudga keladi. O'quvchilarni o'z fikrlarini bildirishga undash, matn mavzusini yoritishga qisman o'qituvchining o'zi ham yordam berib turishi kerak. Keyingi uslub kichik grammatik testlarni topshirish bo'lib, u ikki guruhga bo'lingan holda olib boriladi. Birinchi guruh vakili biror (uyga vazifa qilib berilgan) so'zni o'zbek tilida aytadi. Ikkinci guruh vakili doskaga chiqib, dastlab so'zning inglizcha tarjimasini aytadi, keyin so'zni harf va transkripsiyadagi shaklini yozib ko'rsatadi. Bu jarayon shu tariqa davom etadi. Dars nihoyasida doskada bexato yoza olgan o'quvchilar rag'batlantiriladi. Shuni aytish joizki, o'qituvchi dars davomida vaqtini to'g'ri taqsimlay olishi; dars boshida o'tilgan mavzularni mustahkamlashi; har bir darsda yangi usullarni qo'llashi; har bir dars uchun mos tarqatma materiallardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilini o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning og'zaki nutq tinglab tushunish, yozuv, o'qish ko'nikmalarini o'stirishga va erkin muloqot qilishlariga amaliy yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Xoshimov U., Yoqubov I.. Ingliz tili o'qitish metodikasi. - T.: "Sharq", 2003.
2. Charlotte Bronte. Jane Eyre. London, 1992. -P. 93-95.
3. Rogova G.V., Vereshagina I.N.. Metodika obucheniya angliyskomu yaziku na nachalinom etape sredney shkoli. - M., 1988.